



Bojxonachilar - mamlakatimizning iqtisodiy xavfsizligi posbonlari





Bojxona mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini ta'minlovchi muhim sohalardan biridir. Aynan bojxona xodimlarining fidoyi va jonkuyar mehnati tufayli yurtimizning import-eksport siyosati amalga oshiriladi, olib kirilayotgan tovarlar xavfsizligi nazorat qilinadi, mamlakat byudjetiga halol mablag' tushumi va davlatimizning xalqaro obro'si yuksakligi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari xodimlari kasb bayrami munosabati bilan Surxondaryo viloyati bojxona boshqarmasida bo'lib o'tgan tadbirda tizimda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar samarasi, soha xodimlarining sharaflari va mas'uliyatli mehnati e'tirof etildi.



Darhaqiqat, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan so'nggi yillarda bojxona sohasiga qaratilayotgan ulkan e'tibor, sohada amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida tizimda taraqqiyotning yangi bir davri boshlandi.



Jumladan, viloyatimizdagi "Ayritom" chegara bojxona posti zamonaviy va elektronlashtirilgan post sifatida barpo etilib, bojxona nazoratining yangi texnika vositalari bilan ta'minlandi.



Mamlakatimizning janubdagi darvozasi hisoblanadigan “Ayritom” chegara bojxona posti orqali 2020 yilda 40 mingdan ortiq yuk va avtotransport vositalari harakatlangan. Bu kuniga oʻrtacha 110 ta avtotransport vositasi bojxona nazorati va koʻrigidan oʻtkazildi, degani.

Bu yerda 1 ta yuk avtotransport vositasining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvdan oʻtishi uchun sarflanadigan vaqt oʻrtacha 10 daqiqaga, yengil avtotransport vositasi uchun esa 6 daqiqaga teng boʻlmoqda. Chegara hamda bojxona nazoratidan oʻtkazilayotgan fuqarolar va Oʻzbekistonga tashrif buyurayotgan sayyohlar yaratilgan ushbu shart-sharoitlardan mamnun ekanliklarini bildirishmoqda.

Oʻtgan yil mobaynida ushbu postda yuk poezdi vagonlari orqali olib chiqilgan 1 mln. tonnadan ortiq, avtotransport vositalari orqali tashilgan 81 ming tonnadan ortiq tovarlar eksport bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan.




2020 yil davomida viloyat bojxonachilari tomonidan aniqlangan 839 ta bojxona qoidabuzarliklari natijasida 25 mlrd. soʻmlik tovar-moddiy boyliklari noqonuniy olib

o'tilishining oldi olindi. Shuningdek, "Sariosiyo" temir yo'l chegara bojxona posti tomonidan 172 kg. dan ortiq giyohvand moddalari to'xtatib qolindi.

Shu bilan birga, davlat byudjetiga 161,7 mlrd. so'm bojxona to'lovlari undirildi.

Soha xodimlarining ijtimoiy himoyasi, ularni uy-joy bilan ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar haqida to'xtaladigan bo'lsak, 2020 yilda Sharg'un shaharchasida barcha sharoitlarga ega 32 ta xonadondan iborat xizmat uyi barpo etilib, foydalanishga topshirildi.



Tadbirda o'z xizmat vazifalariga sidqidildan yondoshib, yuksak natijalarga erishgan bir guruh bojxona xodimlariga viloyat hokimligining faxriy yorliq va esdadik sovg'alari topshirildi. Unda so'zga chiqqan bojxonachilar sohaga ko'rsatilayotgan e'tibor va yaratilayotgan shart-sharoitlar uchun o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi, bir tanu bir jon bo'lib xizmat qilishga so'z berishdi.

Tadbirda Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov ishtirok etdi.

